PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

LUQMON BO‘RIXON ASARLARIDA ZAMONAVIYLIK VA MILLIYLIK UG‘UNLIGINING AKS ETISHI

Urinbayeva Durdona
JDPU talabasi
durdona260601@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Xidirova Munavvar**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Luqmon Bo‘rixon ijodida zamonaviylik va milliylik ruhining obrazlar xarakterida hamda asar muhitida qanday aks etgani ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Luqmon Bo‘rixon asarlarining qahramonlari bugungi kun o‘quvchisi uchun yaqin va tanish bo‘lgan fazilatlar, muammolar va hayotiy qarashlarga ega ekani tahlil qilinadi. Muallif obrazlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar, insoniy munosabatlar va milliy qadriyatlarning badiiy talqini o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviylik, milliylik, obraz harakteri, asar muhiti, milliy qadriyatlar, zamonaviy qahramon, ijtimoiy muammo.

ANNOTATION: In this article, explores how modernity and national identity are reflected in the character portrayals and the atmosphere of Luqmon Bo‘rixon’s literary works. It also analyzes how the protagonists in his writings embody qualities, challenges, and life views that resonate with contemporary readers. Through the depiction of his characters, the artistic interpretation of social changes, human relationships, and national values in society is examined.

Keywords: modernity, national identity, character portrayal, literary atmosphere, national values, contemporary hero, social issues.

Kirish: Adabiyot – bu xalq qalbining, zamon ruhining va milliy ongning badiiy aksidir. Har bir davr o‘zining o‘tkir muammolari, ruhiy izlanishlari va ijtimoiy hayoti bilan yozuvchini ilhomlantiradi. Shu bois, yozuvchi nafaqat ijodkor, balki davr va xalq vakili sifatida maydonga chiqadi. Mustaqillikdan keyingi davr o‘zbek adabiyotida milliy g‘urur, tarixiy xotira va zamonaviy hayotga badiiy nigoh kuchayib bordi. Ayniqsa, bugungi kun yoshlarining ruhiy olami, orzu-intilishlari va ijtimoiy muammolari badiiy asarlarda keng yoritila boshladi. Luqmon Bo‘rixon ana shunday dolzarb mavzularni o‘z ijodida yoritayotgan zamonaviy yozuvchilardan biridir. Uning "Sirli muallim" asari zamonaviylik va milliylikni o‘zida uyg‘unlashtirgan, obrazlar orqali bugungi jamiyatning muayyan jihatlarini yoritishga harakat qilgan asardir. Asarda o‘qituvchi shaxsining ichki dunyosi, uning jamiyatdagi o‘rni va yosh avlodga ta’siri zamonaviy hayot kontekstida ochib beriladi. Shu bilan birga, asarda milliy qadriyatlar, ustoz-shogird an’anasi, insoniylik kabi g‘oyalar chuqur ifodalangan. Ushbu maqolada "Sirli muallim" asari misolida Luqmon Bo‘rixon ijodidagi zamonaviylik va milliylik unsurlarining obrazlar xarakteri va asar muhitidagi badiiy aksiga e’tibor qaratiladi.

Asosiy qism: Luqmon Bo‘rixon ijodining asosiy yo‘nalishlaridan biri – zamonaviy hayotni milliy ruh bilan uyg‘un holda tasvirlashdir. Uning “Sirli muallim” asarida ham ushbu yo‘nalish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asar markazida turgan obraz – muallim timsoli nafaqat o‘quvchilarga ta’lim beruvchi shaxs, balki ruhiy murabbiy, milliy qadriyatlar targ‘ibotchisi sifatida gavdalanadi. Muallim obrazining sirli va biroz ramziy xarakterga ega bo‘lishi o‘quvchini mulohaza yuritishga undaydi. U oddiy kishidek tasvirlansa-da, undagi ma’naviy kuch, sabr-toqat va mehr orqali o‘qituvchilik kasbining nechog‘li muqaddas ekani ko‘rsatiladi. Bu orqali muallif aslida yosh avlod tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlarning asrab-avaylanishi va zamonaviylikka yo‘g‘rilgan insoniylik haqida fikr yuritadi.

"Muallim haqida so‘zim ushbudir:

Muallim kamolot ichra ko‘zgudir". (Abdulla Oripov)

Ushbu epigraf asardagi muallim obrazining mohiyatini aniq ifodalaydi. Muallim — faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyat kamolotining, yosh avlodning shakllanishidagi ko‘zgudir. Asarda muallim obrazida milliylik va zamonaviylik tamoyillari uyg‘unlashib, yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Abdulla Avloniy “Madaniyat to‘lqunlari” maqolasida millat taraqqiyoti uchun ilm-fan va madaniyatning ahamiyatini ta’kidlab, zamonaviylik va milliylik uyg‘unligini quyidagicha ifodalaydi: "Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o‘qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa... zamonag‘a muvofiq ravishda ish yuritilsa... haqiqiy madaniyat bo‘stonig‘a yuzlang‘on hamda madaniyat to‘lqunlaridan qutulub, sohili salomatg‘a chiqg‘on bo‘lur eduk".[1] Bu iqtibos milliy qadriyatlar bilan zamonaviylikning uyg‘unligini ko‘rsatib, jamiyat taraqqiyotida ularning o‘rni muhim ekanligini ta’kidlaydi. "Sirli muallim" asarida ham bu uyg‘unlik muallim va uning shogirdlari hayoti, ruhiyati orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Najot G‘aybulla kabi qahramonlar o‘z milliy ildizlariga sodiq qolgan holda, zamon talablariga moslashadi va yangi davr madaniyatining shakllanishida faol ishtirok etadi. Asar muhitida milliylik va zamonaviylik o‘rtasidagi uyg‘unlik, shuningdek, qahramonlarning ichki ruhiyati va ijtimoiy holatida ko‘zga tashlanadi. Bu Luqmon Bo‘rixon ijodining zamonaviylik va milliylik tamoyillarini qanday badiiy ifoda etishini yaqqol ko‘rsatadi. Muallim tasviridagi ushbu uyg‘unlik yoshlarni o‘z tarixiy ildizlari va zamonaviy hayotga moslashish imkoniyatlari haqida chuqur o‘ylashga undaydi.Shunday qilib, "Sirli muallim" asari zamonaviylik va milliylikni uyg‘unlashtirish orqali nafaqat shaxslarning, balki butun jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini yoritadi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, Luqmon Bo‘rixon ijodi, xususan, "Sirli muallim" asarida Najot G‘aybulla qahramoni orqali zamonaviylik va milliylik uyg‘unligi yorqin ifodalanadi. Najot G‘aybulla – nafaqat zamon bilan hamnafas, balki o‘z milliy qadriyatlariga sodiq inson sifatida tasvirlanadi. Uning hayoti va faoliyati orqali muallif yosh avlodga o‘zligini anglash, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish yo‘lida chuqur fikrlar beradi. Asar milliylik va zamonaviylik tamoyillarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, badiiy tasvirlar orqali o‘quvchini o‘zlikni qadrlashga chorlaydi. Shunday qilib, Najot G‘aybulla obrazidagi zamonaviylik va milliylik uyg‘unligi Luqmon Bo‘rixon ijodining g‘oyaviy asosini tashkil etadi va o‘zbek adabiyotida yangi ruhni ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy, “Madaniyat to‘lqunlari” (ziyouz.com)
2. Luqmon Bo‘rixon. "Sirli muallim" (ziyouz.com)
3. Abdulla Oripov. "Muallim" she’ri.